

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Ostonova Jasmina Diyorjon qizi

Annotatsiya: *Maqolada jamiyatimizda mahallaning o'rni va roli, mahallalarga qo'yilayotgan talablar, mahalla bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi, "mahalla yettiligi"ning tashkil etilishi va unga qo'yilgan majburiyatlari oxirgi islohotlar va tahlillar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mahalla, mahalla yettiligi, islohotlar, tashabbus, mahalla raisi, quyi bo'g'in, mahalla faollari, fuqarolar yig'ini, qonunchilik, kengash, konfrensiya, jamoatchilik.*

Abstract: *The article describes the place and role of the neighborhood in our society, the demands placed on the neighborhood, the reforms implemented by the neighborhood and their results, the establishment of the "seven neighborhoods" and its obligations based on the latest reforms and analysis.*

Key words: *neighborhood, neighborhood seven, reforms, initiative, neighborhood activists, citizen assembly, legislation, council, conference, community.*

Mahalla – barchani jipslashtiradigan, mehr-oqibatni, insoniylikni o'rgatadigan, asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab kelayotgan maskan sanaladi. Mahalla barcha narsaning zamini hisoblanadi. U qonunchiligidan eng quyi bo'g'indan biri bo'lishiga qaramay, mana shu bo'g'inda ijrochilik qanchalik yaxshi ta'minlansa, shunchalik mamlakatimiz siyosatida ham bo'layotgan islohotlar o'z natijasini ko'rsatadi. Bejizga mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham: "Mahallani davlatning ramzi. Mahalla obod bo'lsa mamlakat obod bo'ladi" deb ta'kidlamaganlar. Bugungi hayotimizda mahallalarning o'rni beqiyos. Hayotning har jabhasida mahallaning ta'siri sezilarli darajada.

Bugungi kunda Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi ma'lumotlariga qaraganda O'zbekiston Respublikasida mahallar soni 9255 taga yetdi. Shundan 41 tasi shaharcha, 81 tasi qishloq, 164 tasi ovul, 8969 tasi mahalla fuqarolar yig'inini tashkil qilib kelmoqda. Shuningdek, jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan mahallarimiz soni 6 tani tashkil qiladi.

Mahalla bizning mentalitetimizning kichik bir ko'rinishlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi albatta. Sababi, bundan oldin ham xalq o'rtasidagi muhim masalalar mahallada hal qilingan. Yosh oila muammolarini hal qilish deysizmi, meros masalalari deysizmi barcha muammolar mahalla doirasida yoshi kattalar va mahalla raisi bilan kengashib hal qilingan.

Bugunga kelib mahalla hukumatning quyi bir qismi va asosiy e'tibor qaratiladigan bo'g'inlaridan biriga aylandi. Mahallalarni tashkil qilish tartibi, mahalla raisini saylash va uning o'rnbosarlarini tayinlash masalalari, mahalla faollari kabi masalalar bo'yicha alohida normative-huquqiy hujajtlar ishlab chiqildi.

Mahallalar bilan davlat organlari hamkorligini samarali tashkil etish maqsadida, 2023-yil 21-dekabr kuni PQ-402 "O'zbekiston mahallalar uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruvi tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qarori asosida: mahallalarning boshqaruvi xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo'shilishi hisobiga 5 nafardan 7 nafarga ko'paydi va "mahalla yettiligi" tashkil qilindi; mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektorlari tomonidan "mahalla yettiligi" ning tarkibi shakllantirildi; mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi mahallalardagi rivojlanishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan bo'ldi; mahallalar uyushmasi Konferensiyasi uyushmaning yuqori organi bo'lib, 3 yilda 1 marta chaqiriladigan bo'ldi; "mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorlikda ishslash mexanizmlari hamda ularning kollegial mas'uliyati va javobgarligi doirasini aniq belgilash, mahalla raisining ularning sa'y-harakatlarini birlashtirish va yo'naltirish, rag'batlantirish va intizomiy jazolash bo'yicha vakolatlarini mustahkamlandi; "mahalla yettiligi" tarkibidagi lavozimlarga tayinlashda ushbu

mahallada yashovchi nomzodlarga ustuvorlik berildi; mahalla raisining vakolat muddatini 3 yildan 5 yil muddatga uzaytirildi; mahallaning o'zida 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar hal etildi. Tzim esa to'liq raqamlashtiriladi. Shuningdek, mahalla raisining vakolatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mahallabay ishslash tizimini kuchaytirish yuzasidan videoselektor o'tkazdi. Davlat rahbari mamalakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy hamda moliyaviy imkoniyatlar berilayotganini ta'kidladilar. Selektorda ta'kidlanishicha, ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinadi. Shu bilan bir qatorda, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga teng taqsimlab beriladigan bo'ldi.

Mahallalarni rivojlantirish va qo'lllab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etildi. Respublika kengashiga – bosh vazir, hududiy kengashlarga esa, hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar "mahalla yettiligi" qo'ygan masalalarga yechim topadi, moliyaviy manbalarni hal qilib beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kundagi islohotlarni barcha soha va tizimlarga keng yoyish va targ'ib qilish hamda bu bilan respublikamizning eng chetki bo'g'inlaridagi mahallalarda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizni ham bugungi kun islohotlaridan xabardor qilish va ularning tinch, xotirjam va zamon talablariga mos keladigan sharoitlarda yashash, o'qish va ishslashlari uchun mahalla tzimi va undagi boshqaruv tizimlari liberallashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. 2023-yil 21-dekabr kuni PQ-402 "O'zbekiston mahallalar uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qarori.

3. 13.06.2024-yil Vazirlar Mahkamasining 334-sonli “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normative-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida” gi qarori.
4. <https://kun.uz/85045128?q=%2F85045128> - !
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolarning_o%CA%BBzini_o%CA%BBzi_boshqarish_organlari
6. <https://kun.uz/85045128?q=%2F85045128> - !
7. <https://mahallas.uz/uz/news/maallalar-faoliyatini-rabatlantirish-zhamarmasi-tashkil-etiladi>
8. <https://surxondaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=48901>
9. https://yaypan.uz/uploads/hujjat/VI-71-98-11-161-K_23-%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%80%D0%9C%D0%A4%D0%99.pdf
10. <https://www.bviib.uz/oz/news/obod-va-xavfsiz-mahalla-tamoyili-asosida-mahallalarda-xavfsiz-muhitni-yaratish-mexanizmlarini-belgilash-togrisidagi-qoshma-qaror-mazmun-mohiyatini-soha-xodimlariga-tushuntirish-maqсадидаги respublika-idoralalararo-oqitish-guruhi-tomonidan-viloyatning-bir-qator-shahar-va-tumanlari-boylab-oquiv-seminarlari-tashkil-etildi>